

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi
Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti
“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasi

REFERAT

***Mavzu: Makedoniyalik Iskandarning
O'rta Osiyoga yurishlari.***

Bajardi: Pardayev Ruslan.
Tekshirdi: Rahmonov H

Navoiy -2015

Mavzu: Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari.

Reja:

- 1. Makedoniyalik Iskandarning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari.
Baqtriya, Sug'd va Ustrushona bosqini.**
- 2. Markaziy Osiyo xalqlarining Yunon-makedonlar bosqinchilariga qarshi kurashi.**

Tarix Fani kishilik jamiyati bosib o'tgan tarixiy yo'lni qonuniyatli bir jarayon tarzida atroflicha o'rganuvchi Fan sifatida ijtimoiy fanlar tizimida muhim o'rin tutadi va keng xalq ommasini, ayniqsa, yosh avlodni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

Iskandar Zulqarnayn boshchiligida yunonlarning yurtimiz sarxadlarini bosib o'tishi, ularga qarshi Spitamen rahbarligida ko'tarilgan qo'zg'olon ko'pgina manba va adabiyotlarda o'z aksini topgandir

O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekistonning kadimgi va antik davrdagi tarixini o'rganishda kadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari xamda geograf olimlarining asarlari muhim manba bo'lib xizmat kiladi.

Ulardan ayrim va muhimlariga qiskacha to'xtab o'tamiz.

Diodor (miloddan avvalgi 90—21-yillar). Yirik tarixchi olim; asli Sisiliyaga qarashli Argiriya shahridan. Diodor «Tarixiy kutubxona» nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan bu asar asosan Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan to milodning I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Asarda Sharq; xalqlari, shuningdek, O'rta Osiyo va O'zbekistonning qadimiy xalklari (skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar va b.q.), O'rta Osiyo — Eron munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Diodorning mazkur asari ko'p jihatlari bilan ko'chirma (kompilyativ) hisoblanadi. Muallif Efor, Polibiy asar-laridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko'p hollarda bayon etilayotgan voqyealar uzviy bog'lanmay qolgan. Shunga qaramay, Diodorning «Tarixiy kutubxona»si dalillarga boy va ilmiy ahamiyatga egadir.

«Tarixiy kutubxona» to'la holda bizning zamonimizgacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 kitobi- qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1-5-kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron

urushlari (miloddan avvalgi 500—449 yy.) dan to miloddan avvalgi 301 yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan 11-20- kitoblarigina saklangan, xolos.

Asar 1774-1775 yillari I. Alekseyev tomonidan (olti qismda) va 1874—1875 yillari F. G. Mishchenko tarafidan ikki qism qilib nashr etilgan.

Pompey Trog (milodgacha I-milodning I asrlari o'rtasida yashab o'tgan)- «Filipp tarixi» asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuriya podsholari zamonidan to Rim imperatori Avgust (miloddan avvalgi 63 -milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo'lib o'tgan voqyealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (miloddan avvalgi 359-336-yy.) va Iskandar Zulkarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan.

Mazkur asarning qimmatlari shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan; Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Lekin, Pompey Trogning tarixiy jarayon va uning taraqqiyotiga qashlari idealistikdir, chunki u tarixni harakatga keltiruvchi kuch urf-odat va taqdir deb hisoblagan.

«Filipp tarixi»da skiflar, Baktriya, Iskandar Zulkarnayn davrida Baqtriya va Sug'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulkarnayn vafotidan keyin yuz bergan voqyealar, parfiyaliklarning kelib chikishi, Parfiya podsholigining tashkil topishi, parfiyaliklarning urf-odatlar; Baktriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud.

Pompey Trogning mazkur asari Yustin (II—III asr) tarafidan qiskartirilib qayta ishlangan shaklda bizning zamonimizgacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935 yili chop kilingan. Asarning ruscha tarjimasi (tarjimonlar AA. Dekonskiy va M.I. Rijskiy) «Vestnik drevney istorii» jurnalining 1954 yil 2-4- va 1955 yil 1-sonlarida bosilgan.

Arrian Flaviy (taxminan 95-175-yy.)- yirik yunon yozuvchisi, tarixchi va geograf olim; asli Kichik Osiyoning Nikomadiya shahridan. «Iskandar haqida»,

«Parfiyaliklar haqida», «Hindiston» va 7 jildlik «Iskandarning yurishlari» nomli kitoblar muallifi.

O'rta Osiyo va Eronning qadimiy tarixini o'rganishda Arrianning so'nggi asari («Iskandarning yurishlari») muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda Iskandar Zulkarnaynning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan.

Asar panegirizm ruhida yozilgan- muallif Iskandar Zulkarnayn va uning faoliyatini ko'klarga ko'tarib ulug'laydi. Shunga qaramay, asar Iskandar Zulkarnaynning harbiy yurishlari buyicha muhim va asosiy manbalardan hisoblanadi. Mazkur asarning yana bir qimmatli tomoni shundaki, u ko'pgina qo'lyozma manbalar va rasmiy xujjatlar asosida yozilgan.

Arrian Flaviyning «Iskandarning yurishlari» asari nemis (Myuller; Leypsig, 1886 y.) hamda rus (Koren-kov; Toshkent, 1912 y. va M.Ye. Sergeyenko, M.—L., 1962 y.) tillarida nashr etilgan.

Kvint Kursiy Ruf (milodning I asri) — mashhur Rim tarixchisi; Iskandar Zulkarnaynning Eron, O'rta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat «Buyuk Iskandarning tarixi» nomli asar yozib qoldirgan. Muallif Ptolemey Lag va Iskandar Zulkarnaynning safdoshlari Onesikrit va Kallisfenning xotira va asarlaridan keng foydalangan.

Kvint Kursiy Rufning mazkur asarida O'rta Osiyoning Iskandar Zulkarnayn qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zg'olon keng yoritib berilgan.

«Buyuk Iskandarning tarixi» 1841 yili Myutzel, 1867 yili T. Nyoldeke va 1885 yili Fogel tomonidan nashr etilgan. Ruscha yangi tarjimasi B.C. Sokolov taxriri ostida chop etilgan (M., 1963 y.).

1. Makedoniyalik Iskandarning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari.

Baqtriya, Sug'd va Ustrushona bosqini.

Antik dunyo tarixida makedoniyalik **Iskandar Zulqarnayn** (Aleksandr, Makedoniya podshosi Filip II ning o'g'li) olamga dovrug' taratgan jahongir hukmdorlardandir. Yunoniston, Kichik Osiyo, Arabiston hududlarini qudratli harbiy kuch bilan egallab, o'sha joylarda o'z hukmronligini o'rnatgan Iskandar mil. av. 331yil oktyabrida Gavgamela yonida (shimoli-sharqiy Mesopotomiya) bo'lgan jangda Eron qo'shinlarini engadi. Eron podshohi Doro III Iskandardan uzil-kesil engilib, mamlakat sharqiga, Baqtriyaga qochadi. U erda esa Baqtriya satrapi Bess tomonidan o'ldiriladi. Tez orada Iskandar qo'shini ortiqcha qarshiliksiz Baqtriya poytaxti - Baqtra (hozirgi Balx) shahrini hamda Aorn, Drapsak singari mustahkam qal'alarni egallaydi. Ko'p o'tmay Bess qo'lga olinib, qatl etiladi. Mil. av. 328 yilda Xorazm shohi Farasman Baqtradagi Iskandar qarorgohiga tashrif buyuradi va ittifoqchilik bitimi imzolanadi. Shu boisdan Iskandar Xorazmga yurish qilmaydi. Mil. av. 329 yilda Oks (Amu) daryosi sohiliga etib kelgan Yunon qo'shinlari bu azim daryodan o'tish uchun kema topolmadi. Ko'prik quray desa tevarak- atrofda yog'och yo'q edi. Shuning uchun askarlarga somon tiqilgan mesh tarqatishdi. Shu meshda suzib, bor Askar olti kun deganda daryodan o'tib oldilar va Navtaka (hozirgi Qashqadaryoning Kesh-Shahrisabz vohasi)ga kirib boradilar. Navtaka bosqinidan to'rt kun o'tib Yunon qo'shinlari o'z harakat yo'nalishlarini Sug'diyona paytaxti - Marokanda (Samarqand)ga qaratishdi.

Maroqanda - Samarqand ning bosib olinishi.

Miloddan avvalgi 329-yilda Iskandar qo'shinlari Oks — Amudaryodan o'ta boshladi. Pishqirib oqayotgan daryo ularning sollarini surib ketardi, gupsarlarni bir-biriga ulab turgan qayishlar uzilardi. Somon to'ldirilgan gupsarlar suvga botib ketardi. Hurkib ketgan otlar tizginlarini uzib, o'zlarini suvga otishar va qirg'oq tomon suzib ketishardi.

Iskandar qo'shinlarining bir qismi g'arq bo'ladi. Olti kun deganda ular kechuvdan o'tib bo'ladilar. Yana So'g'diyonaga yetguncha ancha tog'-u toshdan oshish kerak edi. Ular yo'l yurib, Navtaka (Nautaka) viloyatiga yetadilar. U Qashqadaryo vodiysining sharqida joylashgan edi. Iskandar Navtakadagi qo'rg'onlarni egallab, Maroqandaga shoshiladi. Bu vaqtda shahar yetmish stadiy uzunlikdagi mustahkam devor bilan o'ralgan edi. Shahar arki Yana bir mustahkam devor Bilan o'ralgan edi. Shunga qaramay yunon-lar shaharni egalladilar va uni ayovsiz talon-toroj qildilar. Tevarak-atrofdagi qishloqlarni ham talab, keyin yoqib yubor-dilar.

U qo'shinlarining bir qismini qoldirib, o'zi asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg'oqlari sari ketadi. Iskandar u yerdagi Kurushkat (Kiropolis) shahrini egallamoqchi edi. Rivoyatga ko'ra, bu shaharga qadimgi fors shohi Kir II asos solgan.

Rim olimi Kurtsiy Rufning ma'lumot berishicha, Iskandar armiyasi Marokandani uncha qiynalmasdan va kam talofat bilan ishg'ol etgan va «shaharda o'zlarining garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», so'ngra esa shimoli-sharqqa qarab harakatlanganlar.

O'shanda Iskandar Zul-qarnayn So'g'diyonada yana yettita shaharni bosib oldi. Shundan keyin u *Tanais* daryosi boylanga qarab qo shin tortdi. Tanaisni mahalliy xalq *Yaksart* deb atardi. Uning boshlanishi Tyanshan tog'larida bo'lib, Gurgon dengiziga kelib quyilar edi. Tanais bo'ylaridagi mahalliy xalq oziq-ovqat va yem-xashak qidirib yurgan makedoniyaliklarni tutib o'ldirdilar.

Shu yerda Iskandar Zulqarnayn huzuriga saklarning elchilari kelishdi. Iskandar ham ular bilan sulh tuzish uchun o'z elchilarini yuborgan edi. Aslida esa Iskandar Zul-qarnaynning elchilari skiflar mamlakatining umumiy ahvoli, skiflarning turmush tarzi, din-e'tiqodi, fe'l-atvori, askarlarining umumiy soni va qanday qurollanganliklarini bilib kelishi kerak edi. Iskandar Zulqarnayn o'sha Tanais bo'yida Aleksandriya Esxata (Uzoqdagi Iskandariya) degan katta bir shahar qurdirdi. Shahar hozirgi Tojikistonning Xo'jand shahri yaqinida

joylashgandi. Bu shahar Iskandar uchun skiflarga qarshi urush olib borishda tayanch bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Lekin Iskandarning skiflar ustiga qilmoqchi bo'lgan yurishi amalga oshmay qoldi. So'g'diyonada katta qo'zg'olon ko'tarilganligi va ularga ergashib baqtriyaliklar ham qo'zg'olon ko'targanliklari haqida bir-biridan tashvishli xabarlar kela boshladi. Shu payt Iskandar Zulqarnayn endi Aleksandriya Esxataga kelib tushgandi. Shahar juda katta bo'lib, 60 stadiy uzunlikdagi devor bilan o'ralgandi. Skiflar tez-tez katta shaharning ro'parasiga kelib, uni qattiq o'qqa tutar edilar. Shu payt Baqtriya ham Iskandar Zulqarnaynning tasar-rufidan chiqib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritib oldi. Iskandar esa ikki o't orasida: bir tomondan mustaqilligini qo'lga kiritib olgan Baqtriya bilan qo'zg'olon ko'targan So'g'di-yona, ikkinchi tarafdan yunon askarlariga tez-tez hujum qilib, ularga katta talafotlar yetkazib turgan saklar orasida qolgandi. Yarador bo'lib qolgan, sog'iig'i borgan sari yomonlashib borayotgan Iskandar Zulqarnayn buning oqibatidan qo'rqardi. Ushbu bosqinchilarga qarshi iste'dodli harbiy rahbar, so'g'dlik Spitamen boshchiligida baqt-riyaliklar, sak va massagetlar qo'shilib qo'zg'olon ko'tar-dilar.

2. Markaziy Osiyo xalqlarining Yunon-makedonlar bosqinchilariga qarshi kurashi.

Maroqandadan so'ng yunon-makedon qo'shinlarining yurishlari nihoyatda qiyin va murakkab kechdi. Chunki ular endilikda mahalliy xalqning qudratli qarshiligiga duch keldi. Iskandar bosqinidan, uning yurtga solayotgan qirg'ini-yu, zulm, asoratidan ko'zi g'aflat uyqusidan ochilgan, erk, ozodlik qadrini har narsadan afzal bilgan ona zamin kishilari bir yoqadan bosh chiqarib, ajnabiy istilochilarga qarshi harakatga keladi. Mil. av. 329 yil kuzida Sug'diyonada boshlanib, O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlarida keng aks sado bergan xalq qo'zg'oloni yurtimiz ozodligi tarixida chinakam yangi sahifa yozgan.

Iskandar tajovuzi va zulmiga qarshi ko'tarilgan bu ommaviy harakatga so'g'd xalqining mard o'g'lони **Spitamen** boshchilik qildi. So'g'diyona va Baqtriyada mahalliy xalqlarning chuqur ishonchini qozongan, katta harbiy

salohiyat sohibi Spitamen xalqdan lashkar tuzib, dastlab Iskandarning Marokandada qoldirib ketgan harbiy garnizoniga hujum qilib uni yanchib tashlaydi. Bu xabar erli aholiga katta ruhiy quvvat bag'ishlab, uning ajnabiylarga qarshi faol kurashiga turtki beradi. Iskandar o'z qo'shinining bir qismini qo'zg'olonchilarga qarshi Marokandaga yo'llaydi. Bu davrda Iskandarning o'zi Yaksart (Sirdaryo)ning chap sohilidagi shaharlar va aholi turar joylarini bo'ysundirish uchun og'ir janglar olib borayotgan edi. Ajoyib jang taktikasini qo'llagan Spitamen Iskandar lashkari Marokandaga yaqinlashib kelayotganini eshitgach, darhol shaharni tark etib, Politimet (Zarafshon) daryosining quyi oqimi tomon jang qilib chekinadi. So'ngra bu erdagi dashtli ko'chmanchilarning otliq askarlari bilan qo'shilib kutilmaganda qarshi hujumga o'tadi. Bundan sarosimaga tushgan yunon qo'shini katta talofatga uchrab, qolgan-qutgan jangchilari bilan shaharga chekinadi. Spitamen Marokandani qamal qiladi. Bundan xabar topgan Iskandar Sirdaryo bo'yidagi hujum harakatlarini vaqtincha to'xtatib, o'zi qo'shinga bosh bo'lib Spitamenga qarshi yurish boshlaydi. U Marokandaga etib kelganida Spitamen kuchlari allaqachon bu joyni tark etib, So'g'diyonaning cho'llik qismiga chekingan edi. Iskandar Spitamendan o'ch ololmagach, butun qahri-zahrini Zarafshon aholisiga qaratadi. U Spitamen kuchlarini ta'qib qilib, Marokandadan cho'lli hududlar tomon borar ekan, yo'l-yo'lakay 120 mingdan ziyod tinch aholini qirib tashlagani tarixiy manbalarda uchraydi. Biroq u bari-bir mahalliy xalqlarni o'ziga uzil-kesil bo'ysindira olmaydi.

Iskandar Doroning yuz minglab muntazam lashkarlariga qarshi jang olib borishdan ko'ra Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib etadi. Negaki, erli aholi o'zining har bir qarich tuprog'i, daryo-ko'li, qir-adiri, qoyasi uchun dushman bilan jon berib, jon olishib kurashgan. Iskandar armiyasining engilmasligi to'g'risidagi afsonalar ham bizning yurtimizda barham topdi. Oxiri shunday bo'lib chiqdiki, O'rta Osiyo erlarini kuch, qurol bilan engalmasligiga ko'zi etgan Iskandar aqlu zakovat,

hiyla yo'li bilan ish tutib, mahalliy aholining yuqori tabaqasi, zodagonlari bilan umumiy til topishga, erli xalqning milliy udumlari, urf-odatlarini, marosimlarini qabul qilishga majbur bo'ladi. Shunday yo'l bilan So'g'diyona ulug'laridan **Oksiart, Xorien** degan mahalliy aslzodalar uning tomoniga o'tadi. Iskandarning Oksiartning go'zal qizi **Raxshanak (Roksana)ga** uylanishi esa qarindoshlik aloqalarining kuchayishiga xizmat qiladi. U xalq qaxramoni Spitamenni qo'lga tushirib, uni jismonan yo'q qilishda ham mahalliy zodagonlar xizmatidan foydalanadi.

Spitamening tez orada o'ldirilib, uning boshi Yunon podshohiga tortiq qilinganligi fakti ham qo'zg'olonchi kuchlar o'rtasida birlikning bo'lmaganligi alomatidir. Shunga qaramay ajnabiy bosqinchilarga qarshi xalq g'alayonlari 327 yil boshlariga qadar davom etdi. Garchand Spitamen boshchiligidagi keng ommaviy xalq harakati oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchragan bo'lsada, u ulug' ajdodlarimizning mardlik jasoratini, elu-yurt hurligi, ozodligi yo'lidagi fidoyiligini yorqin namoyon etdi.

Shunday qilib, muttasil uch yil davom etgan shiddatli janggu jadallardan so'ng Iskandar Baqtriya, Sug'diyona va Ustrushonaning faqat bir qisminigina itoat ettirib, bu hududlarga o'z ishonchli odamlarini, o'ziga sodiq sug'dlik Oropiyni Sug'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi mil. av. 327 yilda Hindiston tomon qo'shin tortadi.

Yunon-Makedon qo'shinlari O'rta Osiyo erlarida shu qadar holdan toyib, o'zining jangovorlik qobiliyatini yo'qotdiki, buning oqibatida ular shimoliy Hind erlariga arang kirib bordilar. Bu holatni tan olgan Iskandar tez orada Hindistondagi urush mavsumini tugatib, ortga, ikki daryo oralig'idagi Bobil shahriga qaytib ketishga buyruq beradi. Antik dunyo olimlarining yakdil ta'kidlashicha, Yunonlar podshosining bu buyrug'i ruhan cho'kkan uning butun qo'shinida katta qoniqish bilan qarshi olingan ekan.

Shunday qilib, butun er yuzini egallab, dunyo hukmdori bo'lishga da'vo qilgan Iskandarning sharqiy yurishlari oxir - oqibatda ko'zlangan yuksak

natijalarsiz tugadi. Uning o'zi mil. av. 323 yilda Bobilda hayotdan ko'z yumadi. Ayniqsa uning ko'p sonli lashkarlarining Vatanimiz sarhadlarida mislsiz xalq qarshiligiga duch kelib, son-sanoqsiz qurbonlar berishi pirovardida uning jahongirlik da'vosini puchga chiqardi.

O'zgalar yurtini zo'rlik bilan egallash evaziga qudratli saltanat qurish, boshqalarga o'z irodasini majburlash yoxud zulm-asoratni kuchaytirish pirovard natijada qanday xunuk oqibatlarga olib kelishini Iskandar Zulqarnayn timsoli yaqqol isbot etadi. Tarixning bu achchiq sabog'ini hech mahal unutmaslik kerak bo'ladi. Iskandar Zulqarnaynning so'ngi taqdiriga kelsak, u miloddan avvalgi 327- yili Hindiston ustiga qo'shin tortdi va mamlakatni shimoli-g'arbiy qismini bosib oldi. U Yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga chalinadi va miloddan avvalgi 323-yilning iyunida 33 yoshida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998 y.
2. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan eramizning V asrigacha) 115-119, 148-191 b.
3. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. I - jild. T. 1992 y.
4. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., O'qituvchi» , 1991 y.
5. Karimov SH., SHamsiddinov R. Vatan tarixi. T.1997 y., 6. Kvint Kurtsiy Ruf. Istoriya A. Makedonskogo. M. 1963 g.